

## **LINGVOKULTUREMALAR – TILI O‘RGANILAYOTGAN XALQNING TURMUSH TARZI VA MADANIYATINI AKS ETTIRISH VOSITASI SIFATIDA**

**Usmonova Zamira Jahongirovna,**  
*O‘zDJTU O‘zbek tili va adabiyoti  
kafedrasida katta o‘qituvchisi*

***Annotatsiya.** Lingvokulturologiya olamni milliy tilda aks etishini, har bir shaxsning milliy madaniy qarashlarini ifodalovchi vositalarni o‘rganuvchi soha bo‘lib, unda o‘z mazmun-mohiyatida madaniy komponentlar qamrab olinganligi bilan yaqqol ajralib turuvchi lingvokulturemalar alohida o‘rin tutadi. Demak, aynan til va madaniyat kesishmasida yuzaga keladigan milliy realiyalar lingvokulturemalar deb ataladi va ular o‘z mazmun-mohiyatida milliy madaniy tushunchalarni qamrab olganligi bilan ajralib turadi.*

***Kalit so‘zlar:** lingvokulturologiy, milliy til, lingvokulturema, til – millat - madaniyat zanjiri*

Ma‘lumki, til inson tomonidan dunyoni ko‘rishning turli xil modellarini aks ettirish vositasi bo‘lib, bunda so‘zlar ayrim tushunchalarni ifodalashning simvolik va semiotik formulasi sifatida muayyan tilda mavjud imkoniyatlarni namoyon etadi. Inson o‘zini o‘rab turgan atrof-borliqdagi narsa-buyumlar, voqea-hodisalarni til vositasida o‘zi tasavvur qilgan shaklda ifodalaydi. Bunda til nafaqat dunyoni bilish vositasi sifatida, balki muayyan til egalarining madaniy turmush tarzi, dunyoqarashini ham aks ettirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Har qanday madaniyat milliylik bilan yo‘g‘rilganligi bois, har bir tilda dunyoning ko‘rish o‘ziga xos turli shakl va vositalar orqali namoyon bo‘ladi [4;9].

Shu bois zamonaviy tilshunoslik va lingvodidaktikaning bugungi rivojlanish bosqichi tadqiqotlar markaziga nafaqat tilning ichki mazmuni va tuzilishi bilan bog‘liq xususiyatlarni, balki til vositasida aks ettiriladigan real borliq va uning inson tomonidan taqdim etilishi masalalarini ham qo‘ymoqda. Bu holat o‘z-o‘zidan madaniyat fenomeniga qiziqishning kuchayishi, til va madaniyat muammolari, shaxs rivojida ularning ikkiyoqlama roli masalalarining faollashuvini yuzaga keltirmoqda.

Til – insonning dunyoni anglash, dunyoni va unda o‘zining o‘rnini tushuntirishga qaratilgan ko‘p asrlik faoliyati mahsulidir. Inson faoliyati jarayonida dunyoni o‘zining milliy madaniy turmush tarzi ko‘zgisidan o‘tkazib qabul qiladi, shu bois til ayni vaqtda muayyan madaniyatni ifodalovchi vosita hamdir. Til nafaqat dunyoni ko‘rish vositasi, balki har bir xalqning milliy madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi vosita hamdir. Keyingi yillarda til egalarining turmush tarzini bevosita ifodalovchi til vositalarining ijtimoiy jihatlariga borgan sari ko‘proq e‘tibor qaratayotganliklaridan kelib chiqib, til va madaniyat, til va jamiyat masalalari, tilning

madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o‘zaro aloqasi va ta’sirini antroposentrik yo‘nalishda tadqiq qilishga qaratilgan tadqiqot ishlari yuzaga keldi [5;32].

Til va madaniyat turli semiotik belgilar tizimi hisoblansa-da, ularning bir-biriga aloqador, umumiy jihatlari ham mavjud. Bu borada V.N.Teliyaning qarashlari diqqatga sazovor bo‘lib, u til va madaniyatning umumiy jihatlari sifatida quyidagi omillarni ko‘rsatib o‘tadi:

- til ham, madaniyat ham bilish vositasi, ular insonning dunyoqarashini ifodalashga xizmat qiladi;

- til va madaniyat o‘zaro dialogda faoliyat yuritadi;

- til va madaniyatning sub’yekti har doim individ va sosium, ya’ni shaxs va jamiyat bo‘lib kelgan;

- me’yoriylik – tilga ham, madaniyatga ham xos bo‘lgan umumiy xususiyatdir;

- tarixiylik – til va madaniyat mohiyatiga xos xususiyatlardan biridir;

6) tilga ham, madaniyatga ham dinamik-statik antinomiya xos» [3; 225-226].

Ko‘rinadiki, til va madaniyat ham genetik, ham moddiy, ham funksional (maqsad va vazifalariga ko‘ra) jihatdan umumiylikka ega, shu bois birorta ham madaniyat tildan ayro holda yashamaydi. Tildagi har bir so‘z tarixni namoyon qiladi va bizga insonlar va ularning hayoti, qanday yashaganliklari, nimlarni o‘ylaganliklari, qanday mehnat qilganliklari, u manzildan boshqasiga qanday ko‘chib yurganliklari haqida ma’lumot beradi.

Demak, ushbu hodisalarning tabiatini tushunish uchun til va madaniyat mohiyatini e’tiboridan bir butun, bo‘linmas shaklda qabul qilish kerak. Ayni vaqtda til va madaniyat kesimida, lingvokulturologiyaning markaziy uchligi bo‘lgan *til – millat - madaniyat* zanjirida inson markaziy o‘rinni egallashini ham nazarda tutish kerak bo‘ladi. Mazkur uchlikning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan til muayyan madaniyatning mavjudligi belgisi va uning haqiqiy real ko‘rinishini ifodalovchi vositadir. Boshqacha aytganda, til orqali inson olamga va o‘ziga muayyan madaniy qarashlar orqali nazar soladi, to‘g‘rirog‘i, til insonni madaniyat olamiga olib kiradi.

Til va madaniyatning uzviy aloqadorligida til belgisining asosiy fenomen sifatidagi rolini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

-til – bu ajdodlardan meros bo‘lgan madaniyatning tarkibiy qismi;

- til – madaniyatni o‘zlashtirishning asosiy vositasi;

-til – madaniyat unsurlari va unga aloqador voqea-hodisalarning eng muhimi bo‘lib, madaniyatni tushunib yetish uchun, madaniyatga aloqador unsurlarning barchasini til kodlari sifatida qabul qilish kerak bo‘ladi. Ko‘rinadiki,

madaniyatning tub mazmun-mohiyatini anglab yetish faqat til vositasidagina amalga oshadi.

Keyingi yillarda lingvistika va kulturologiya kesimida V.V. Vorobyev, V.V. Krasnix, V.A. Maslova, A.T. Xrolenko, Yu.S. Stepanov, V.N. Teliya, Yu.D. Apresyan, A.D. Shmelev, Ye.A. Yakovleva va boshqa qo‘plab olimlarning tadqiqot ishlarida til va madaniyat, ularning o‘zaro ta’siri masalalarining turli jihatlari o‘rganildi, turli munosabatlar bildirildi. Jumladan, G. M. Alimjanova o‘z tadqiqot ishida V.V. Vorobyevning quyidagi fikrini keltirib, til va madaniyatning farqli jihatlarniqayd etib o‘tadi: «Til murakkab belgilar tizimi sifatida til axborot-ma’lumotlarni uzatish, saqlash, qo‘llash va o‘zlashtirish vositasi sifatida amal qilishi, ayni vaqtda madaniyat ham til kabi axborotni uzatuvchi semiotik belgilar tizimi hisoblanishi, biroq tildan farqli ravishda u o‘z-o‘zini qayta tuza olmaydi, chunki madaniyat - bu, eng avvalo, xotira, bilan bog‘liq murakkab semiotik tizim, uning vazifasi – xotirada saqlash, asosiy belgisi esa – jamiyatga aloqador mutlaq bilimlarni umumlashtirishdir» [1; 14]. Darhaqiqat, «til» va «madaniyat» tushunchalari bir qator jihatlari bilan farqlanadi, chunonchi:

- til va madaniyat – har xil semiotik belgilardir;
- madaniyat – belgilar tizimi, biroq til kabi o‘zini qayta tuzish qobiliyatiga ega emas;
- tilda adresatning umumiyliги fenomeni mavjud, ayni vaqtda madaniyat kazolarga xoslik jihatlari bilan baholanadi.

Ayni vaqtda til va madaniyatning umumiy jihatlari ham ko‘p. Masalan, Z.K. Sabitova «til va madaniyat fenomenlarining umumiy jihati ularning tabiatan insonga xosligi, funksiyalari va kelib chiqish shart-sharoitlari, ya’ni agar genetik aspektda ko‘riladigan bo‘lsa, til va madaniyat bir vaqtda yuzaga kelganligi, moddiy tomondan qaralsa, semiotik xarakterga egaligi i funksional vazifalarining bir xilligi bilan izohlanadi» [1;11] deb ta’kidlaydi.

Insonlar eng qadimgi vaqtlardan beri atrofini o‘rab turgan real borliqdagi narsa-buyum, voqea-hodisalarini, o‘zaro munosabatlarini ifodalovchi mavhum tushunchalarni ham o‘z tilida ifodalashga intilganlar, shu bois hatto har bir tilda ayrim tovushlarning qo‘llanishi ham shu jamiyatda o‘zaro kelishib olingan, shu jamiyatga xos bo‘lgan muayyan ma’noni ifodalashga xizmat qiladi. Inson o‘zining fikr-qarashlarini va o‘zi yashayotgan olam bilan ruhiy uyg‘unligini o‘z turmush tarzi, milliy madaniy qarashlari prizmasidan o‘tkazib gavdalandiradi va o‘z tilida ifodalaydi. Inson turmush tarzining turli jug‘rofiy va iqlimiy shart-sharoitlari,

hayotidagi tarixiy voqea-hodisalar, atrofidagi etnoslarning o‘zaro ta’siri asosida unda muayyan ijtimoiy madaniy belgilardan tashkil topgan myentalitet shakllanib boradi.

Aytilganlardan kelib chiqib, lingvokulturologiya fani tilda namoyon bo‘ladigan madaniyatni ifodalash vositalarini, ya’ni tilni madaniyat fenomeni sifatida o‘rganadi, degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu fanning asosiy vazifasi tilda ishlab chiqilgan va me’yoriy normativga keltirilgan madaniy kodlarni aniqlash, o‘rganish va tavsiflashdir.

Boshqacha aytganda, til madaniy axborotlarning translyatori vazifasini bajaradi va ayni vaqtda o‘zi madaniyatni yaratadi ham, chunki madaniyatga oid kategoriyalarning barchasi tabiiy tilda o‘z aksini topadi. Shu bois lingvokulturologiyaning o‘rganish ob’yekti muloqot-muomala jarayonidagi kommunikativ birliklar, kommunikativ distansiya, kommunikativ taktika va strategiyalar, muayyan xalqning muomala odobiga oid lingvokultremalar tashkil etadi. O‘zaro muloqot jarayonida har bir tilda aks etadigan va til egalari tomonidan me’yorlashtirilgan milliy-madaniy kodlar, axloq etalonlari muayyan tilning madaniyat oynasi sifatida tili o‘rganilayotgan xalq turmush tarzi, madaniyati, milliy xususiyatlari haqida ma’lumot beradi.

Xorijliklarga muayyan tilni o‘rgatishda tilning ifoda vositalarini aynan shu jihatlarni ko‘zda tutgan holda o‘rganish, tanlash va qo‘llanishini o‘rganish, ya’ni ta’limni lingvokulturologik yondashuv asosida tashkil etish maqsadli hisoblanadi. Jumladan, V.G. Babayeva chet tillarini o‘rgatishda mashg‘ulotlarni tashkil etishda:

- til materiallarini tili o‘rganilayotgan xalq madaniyati va mentaliteti xususiyatlarini yoritishi va ushbu mamlakatning milliy-madaniy fonini namoyon qilishi nuqtai nazaridan tanlash;

- mashg‘ulotlarda madaniyat va san’atga oid leksikanining ko‘p bo‘lishiga e’tibor qaratish;

- mashg‘ulotlarda xalqning real hayotini aks ettiruvchi autentik materallardan foydalanish;

- til o‘rganish jarayonida musiqa, qo‘shiqlar, jihozlar kabi xalqning milliy-madaniy turmush tarzini aks ettiruvchi materiallardan yordamchi o‘quv vositasi sifatida foydalanish samarali natija berishini ta’kidlaydi [2; 58].

Shunday qilib, lingvokulturologiya olamni milliy tilda aks etishini, har bir shaxsning milliy madaniy qarashlarini ifodalovchi vositalarni o‘rganuvchi soha bo‘lib, unda o‘z mazmun-mohiyatida madaniy komponentlar qamrab olinganligi bilan yaqqol ajralib turuvchi lingvokulturemalar alohida o‘rin tutadi. Demak, aynan til va madaniyat kesishmasida yuzaga keladigan milliy realiyalar lingvokulturemalar

deb ataladi va ular o‘z mazmun-mohiyatida milliy madaniy tushunchalarni qamrab olganligi bilan ajralib turadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алимжанова Г. М. Сопоставительная лингвокультурология: сущность, принципы, единицы: Автореферат дисс. ...докт. фил. наук. – Алматы, 2010. – С.11
2. Бабаева В. Г. Обучение учащихся старших классов гимназий с гуманитарным профилюкультуроведческому дискурсу на основе медиа ресурсов: дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.02. Санкт-Петербургский государственный университет, 2011.
3. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996.- С.225-226.
4. Холмурадова Л. Э. Тематико-идеографическая репрезентация образных и мотивированных фразеологизмов английского и французского языков: лингвокультурологический аспект: Автореф. дис. ... докт. фил. наук. – Самарканд, 2015. – С.9.
5. Xudoyberganova D. Lingokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – B.32.